7. Чернышов С. И. Поехали! Русский язык для взрослых. Базовый курс. СПб.: Златоуст, 2009. 168 с.
8. Антонова В. Е., Нахабина М. М., Сафронова М. В. Дорога в Россию: учебник русского языка (элементарный уровень). СПб.: Златоуст, 2009. 344 с.
9. Пехливанова К. И. Грамматика русского языка в иллюстрациях: учебное пособие. М.: Русский язык, 1990. 353 с.
10. Халперн Д. Психология критического мышления: учебное пособие. СПб.: Питер, 2000. 512 с.

ALLERGIK KASALLIKLARNING RIVOJLANISH MEXANIZMLARI

Respublika Shoshilinch Tibbiy Yordam
Ilmiy markazi Navoiy filiali shifokori: L.O'.Bazarov
Navoiy davlat universiteti dotsenti: U.B.Baxodirova.,
1-kurs magistrant: Sh.T.Shokirova

Annotatsiya

Ushbu maqolada allergik kasalliklar ularni keltirib chiqaruvchi sabablar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek allergik reaksiyalarga nisbatan organizmda paydo bo'ladigan javob reaksiyalari haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: allegiya, allergik reaksiya, antitelo, allergen

Абстрактный

В данной статье представлена информация о причинах аллергических заболеваний. Также выделена информация о реакции организма на аллергические реакции.

Ключевые слова: аллергия, аллергическая реакция, антитела, аллерген.

Abstract

This article provides information about the causes of allergic diseases. Information about the body's response to allergic reactions is also highlighted.

Key words: allergy, allergic reaction, antibody, allergen

Allergiya (qad. yun. ἄλλος — yot, begona + ἔργον — ta'sir) — immunopatologik jarayon bo'lib, organizmga ta'sir qiladigan yoki tana bilan aloqada bo'lgan, masalan, chang yoki ari zahari, hayvonlar juni, kabi moddalarga immun tizimining reaksiyasidir.

Allergik reaksiyani keltirib chiqaradigan modda “allergen” deb ataladi. Buday moddalar oziq-ovqat, ichimliklar va atrof-muhitda mavjud. Ularning aksariyati zararsiz bo'lib, ko'pchilikda allergiya chaqirmaydi.

Allergenga nisbatan javob raksiyasi darhol yoki asta-sekin o'ta sezuvchanlik ko'rsatish orqali sodir bo'lishi mumkin. Allergen organizmga tushganida unga javoban haqiqiy va psevdallergik (soxta) allergik reaksiyalar paydo bo'lishi mumkin. Haqiqiy allergik reaksiya boshlanishidan oldin ma'lum bir davr o'tib, bunda organizmning unga birinchi bor tushgan moddaga sezgirligi ortib boradi, bu sensibilizatsiya deb nomlanadi. Sensibilizatsiya yuzaga kelishi organizmda unga birinchi bor tushgan allergenga javoban alohida oqsil moddalar — antitelolar yoki o'sha allergen bilan o'zaro ta'sir qila oladigan limfotsitlar paydo bo'lishiga bog'liq. Shungacha allergen organizmdan chiqarib yuborilgan bo'lsa, hech qanday kasallik alomati kuzatilmaydi. Agar allergen chiqib ketmagan bo'lsa yoki chiqib ketganidan keyin organizmga takror

tushsa, bunda u yuqoridagi antitanalar yoki limfotsitlar bilan o‘zaro ta’sirlashib, allergiyaga sabab bo‘ladi. Natijada bir qancha biokimyoviy jarayonlar boshlanib, gistamin, serotonin kabi talaygina moddalar ishlanib chiqib, hujayralar, to‘qimalar va a‘zolari zararlaniradi, shu tariqa maxsus, ya’ni ilgari organizmga ta’sir qilgan allergenga javoban javob reaksiya sodir bo‘lib, allergik kasallik paydo bo‘ladi. Soxta reaksiyalar organizm allergenga birinchi bor duch kelganida boshlanaveradi. Bunda sensibilizatsiya davri bo‘lmaydi. Organizmga tushgan allergenning o‘zi hujayra, to‘qima va a‘zolari zararlaniradigan moddalarni paydo qiladi. Soxta reaksiyalar ko‘pincha oziq-ovqatlarga va dori-darmonlarga nisbatan ro‘y beradi. Organizm allergenga duch kelganida har doim ham allergiya paydo bo‘lavermaydi. Bunda irsiyat, nerv va endokrin sistemalar ahvoli muhim ahamiyatga ega, chunki kasallikka asosan bu sistemalar funksiyasining buzilishi, og‘ir ruhiy kechinmalar sabab bo‘ladi. Allergiyaning oldini olish sensibillovchi ta’sirga ega bo‘lgan moddalarning organizmga takror kirishiga va organizm himoya reaksiyalarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishdan iborat.

Allergiya rivojlanishi sabablari. Inson immuniteti allergenga patogen (tashqi zararli moddalar) deb javob beradi va uni begona bakteriya, virus, zamburug‘ yoki toksin kabi yo‘q qilishga harakat qiladi. Biroq allergenning o‘zi zararli emas, shunchaki immun tizimi bu moddaga juda sezgir bo‘lib qolgan. Immun tizimi allergen ta’sir qilganda uni yo‘q qilish uchun antitanalar turi — **immunoglobulin E (IgE)** chiqaradi. U esa o‘z navbatida organizmda allergik reaksiyaga olib keladigan kimyoviy moddalar ajratadi.

Ushbu kimyoviy moddalardan biri **gistamin** deb ataladi. Gistamin mushaklarning qisqarishiga olib keladi, shu jumladan qon tomirlarining devorlari va nafas yo‘llarida ham. U shuningdek burunda shilliq ajralishiga hissa qo‘shadi. Inson organizmni doimo muayyan xavfqa qarshi kurashishga moslashgan qilib yaratilganligi bois, xavf bo‘lmaganda immun tizimi bexatar sanaladigan moddalarga ham reaksiya qila boshlaydi.

Alomatlari. Bemor allergen bilan to‘qnashganda reaksiya darhol yuzaga kelmaydi. Immun tizimi asta-sekin moddaga nisbatan sezgirlikni oshiradi. Vaqt o‘tib, organizm o‘ziga xos yuqori sezgirlikka ega bo‘ladi. Bu jarayon sensibilizatsiya deyilib, bir necha kundan bir necha yilgacha davom etishi mumkin. Ko‘pgina holatlarda sezuvchanlik jarayoni oxirigacha yakunlanmaydi va bemorda ba’zi alomatlar yuz beradi, ammo to‘liq allergik reaksiya kuzatilmaydi. Immun tizimi allergenga ta’sir qilganda, yallig‘lanish va qo‘zgalish xususiyati paydo bo‘ladi. Namoyon bo‘ladigan belgi va alomatlar uning turiga bog‘liq. Allergik reaksiyalar terida, ichakda (ovqat hazm qilish tizimi), sinuslarda, havo yo‘llarida, ko‘zlar va burun yo‘llarida paydo bo‘lishi mumkin.

Chang va changchiga allergiya simptomlari quyidagicha:

- Ko’z, burunda qichishish;
- Burun bitishi;
- Yo’tal;
- Ko’zlarning shishishi, yoshlanishi;
- Rinit.

Terida, masalan ekzema quyidagicha namoyon bo’ladi:

- Qichishish;
- Terining qipiqalanishi, quruqlashishi;
- Qizg’ish toshmalar toshishi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan reaksiyada:

- Til, lab, yuz va tomoqning shishishi;
- Qayt qilish;
- Og’izdagi achishish;
- Diareya;
- Nafas olishning buzilishi;
- Rektal qon ketish (bolalar kamdan-kam hollarda);
- Oshqozon spazmi;
- Anafilaksiya (anafilaktik shok) — juda jiddiy, ko’pincha hayot uchun xavfli

bo’lgan allergik reaksiya.

Hasharotlar chaqishiga javoban:

- Ovozning xirillashi;
- Chaqilgan joyining shishishi;
- Qon bosimining keskin pasayishi;
- Teri qichishi;
- Bosh aylanishi;
- Nafas olish qiyinligi va yo’tal;
- Anafilaksiya.

Dori vositalarga allergiya quyidagi belgilarga ega bo’lishi mumkin:

- Ovozning xirillashi;
- Til, yuz, lab shishishi;
- Anafilaktik shok belgilari;
- Qichish, terida toshmalar toshishi;

Tashxislash

Patologiyani aniqlashning bir necha yo’llari bor. Shifokor bemorga allergiyaning kelib chiqishi, qachon paydo bo’lishi, uning simptomlari haqida savollar beradi. Bundan tashqari, oilaning boshqa a’zolarida shunday holat mavjudligini so’raydi.

Allergiya mavjudligini aniqlash uchun bir qator testlar mavjud. Quyida ba’zi misollar keltirilgan:

• **Qon tahlili**— immunitet tizimi tomonidan chiqarilgan IgE antitanalari darajasini o’lchaydi. Ushbu sinov ba’zida radioallergosorbent test (RAST) deb ham ataladi.

• **Terini tilish testi** ham turli antibiotiklarni qabul qilishdan oldin test sifatida tanilgan. Teri shpritsning uchi bilan tiriladi va jarohatga biroz allergen qo’llaniladi. Agar terida reaksiya kuzatilsa, tashxis tasdiqlanadi.

• **Patch testi** — dermatit bo’lgan bemorlarda qo’llaniladi. Belga shubha qilinayotgan allergen kerakli miqdorda maxsus metall disklarga qo’yib biriktirildi. Shifokor 48 soatdan keyin terining reaksiyasini tekshiradi.

Shuning uchun, mabodo allergiya boshlanganiga shubha paydo bo’lsa, mutahassis shifokorga murojaat qilish kerak bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. R. M. Haitov va b. ”Immunologiya” darslik T.1996 y
2. S.Yu.Kurbanova mikrobiologiya va immunologiya (amaliy mashg‘ulotlar) T.2015y
3. O.A.Nazarov va b “Klinik allergologiya” darslik T.2016 y

TURKISTON JADIDLARINING TA'LIM ISLOHOTLARI

Bozorova Marjona Hamid qizi

BuxDPI 1-bosqich magistranti

Telefon raqam : +998883013637

Elektron pochta: marjonajahongir211@gmail.com

Isoqova Mohigul Muxtor qizi

BuxDPI 1- bosqich magistranti

Telefon raqam: +998907113016

Elektron pochta: mohigulisoqova527@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadidchiligining XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida shakllangan ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakati, uning asosiy maqsadi- Turkiston xalqlarining ijtimoiy-ma'naviy hayotini o'zgartirish, madaniyat va ta'limni rivojlantirish maqsadidagi islohotlari haqida, xususan, yangi usul maktablarini tashkil qilish orqali ta'lim tizimi isloh qilinganligi va bu islohotlar jamiyatning taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: jadidlarning ta'lim islohotlar, yangi usul, ayollar ta'limi, matbuot, ma'rifat, “Oyna”, “Turon”, “Sho'roi Islom”

Аннотация: В данной статье рассматривается общественно-политическое и культурное движение туркестанского модернизма, сформировавшееся в конце XIX – начале XX века, его основная цель – реформы, направленные на изменение социальной и духовной жизни народа Туркестана. Развивая культуру и образование, в частности, считалось, что система образования была реформирована путем создания методических школ и что эти реформы имели большое значение в развитии общества.

Ключевые слова: современное образование, реформы, новый метод, женское образование, пресса, просвещение, «Ойна», «Туран», «Шурай Ислам».

Abstract: This article discusses the socio-political and cultural movement of Turkestan Jadidism, which was formed in the late 19th and early 20th centuries, its main goal - to change the socio-spiritual life of the peoples of Turkestan, to develop culture and education, in particular, the reform of the education system through the organization of new method schools and the great importance of these reforms in the development of society.

Keywords: Jadid educational reforms, new method, women's education, press, enlightenment, "Oyna", "Turon", "Sho'roi Islam"

Shiddat bilan tarraqqiy etayotgan bir davrda jadidlar hayoti va faoliyatini oʻrganishga Jahonda, jumladan, Myunster universiteti (Myunster, Germaniya), Mayns universiteti (Mayns, Germaniya), Humboldt universiteti (Berlin, Germaniya), Tokio universiteti (Tokio, Yaponiya), Istanbul universiteti (Istanbul, Turkiya)da, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, mintaqada sovet hokimiyatining oʻrnatilishi, yangi boshqaruv tartiblarining joriy etilishi, jadidlar tomonidan siyosiy tashkilotlarning tuzilishi, Turkiston jadidlarining qatagʻon qilinishi, muhojirlikka ketishi va ularning xorijdagi faoliyati masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Turkiya, Misr, Eron, Hindiston, Afgʻoniston olimlari ham jadidlar faoliyatini oʻrganib kelmoqdalar. Bu esa butun dunyoda jadidlar faoliyatini oʻrganish dolzarb masala ekanligini isboti hisoblanadi.

Turkiyada ham jadidchilik tarixi masalalari keng tadqiq qilinayotgan mavzulardan boʻlib, Ali Bodomchi¹, Ahad Andijon² kabilar Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, yangi usul maktablarining tashkil etilishi, xorijga muhojirlikda boʻlgan taraqqiyparvarlar hayoti va faoliyatini oʻrgandilar.

Ahad Andijan 1951-yil 1-aprelda Afgʻonistonda tugʻilgan turk shifokori, siyosatchi va yozuvchisi. “Turkiston uchun kurash” asarida turk davlatida jadidchilik harakati haqida maʼlumotlar berilgan. Bu asarni oʻzbek tiliga Tohir Qahhor tarjima qilgan. Turkiston tarixi bilan bogʻliq bir qancha asarlari muallifi boʻlgan Ali Bodomchi 1949 yil 1-martda Hatay Shenkoyda (Sheyhko'y) tugʻilgan. "Turkiston milliy istiqlol harakati va Anvar Posho". Kitob arxiv hujjatlari asosida tuzilgan boʻlib, 1917 - 1934-yillarni qamrab olib, Turkistondagi milliy istiqlol harakatini oʻrganadi.

Jadidlar faoliyati haqida Oʻzbekistonda ham juda koʻp ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Turkiston jadidlari haqida, xususan Mahmudxoʻja Behbudiy faoliyati, ilmiy asarlari xususida bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borishdi va tarixiy manbaalar asosida asarlar yozishgan. Bularga misol sifatida quydagilarni ayta olamiz: D.A Alimova hamda D.A Rashidovalar “Mahmudxoʻja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri” nomli risola chop qilishgan. Maktablarda Adabiyot darsliklarida ham M.Behbudiy hayoti va ijodi keng oʻrganiladi. Tojikistonda R.Xodizoda, Germaniyada I.Baldauf³, AQSHda E.Olvort⁴ Behbudiy hayoti va ijodi boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bundan 94 yil muqaddam 1926-yili shaqrshunos Laziz Azizzoda⁵ Behbudiy

¹ Ali Bademci. 1917- 1934. Türkistan Milli İstiklal Hareketi. Korbaşılar ve Enver Paşa (1 – 2-cilt). İstanbul, 2008; Turkistonda Enver Paşanın Umum Muhaberesi Muoluu Molba Nasıfını Hatıraları. Sarıllı Basmacı. İstanbul. 2010;

² Andican A. Turkestan Struggle Abroad from Jadidism to Independence. Haarlem: Sota, 2007; Ahad Andijon. Turkiston uchun kurash. Tohir Qahhor tarjiması. Toshkent: “Tafakkur”, 2017;

³ Ingeborg Baldauf. XX-asr oʻzbek adabiyotiga chizgilar.. –T.:Maʼnaviyat, 2001

⁴ Allworth E. Central Asia. A Century of Russian rule. New York-London: Columbia University Press, 1967; : Central Asia: 130 Years of Russian Dominance. A Historical Overview. 3rd ed., Durham & London: Duke University Press, 1994

⁵ Azizzoda L. Behbudiy- Maorif va oʻqituvchi. 1926.No2.

to'g'risida fikr bildirib quyidagini yozadi: “Agar O'zbekistonda Navoiy va Ulug'bekdan boshqa uchinchi bir ilm va madaniyat arbobiga haykal qo'yiladigan bo'lsa, shubhasiz bu Behbudiyning haykali bo'lg'usidir”.

Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon asarlaridagi ma'naviy-ma'rifiy qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. Buyuk ma'rifatparvar ziyolilarning g'oyalari milliy g'oya va istiqlol mafkurasining teran tomirlari bo'lib qolaveradi. Jadidlar jamiyatni isloh qilish, xalqni ma'rifatli qilish, milliy o'zlikni anglash g'oyalari ilgari surgan. Ular o'sha davrdagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, jamiyatni taraqqiy ettirishni o'z oldiga maqsad qilgan edilar.

Bu kabi maqsadlarga erishish uchun esa ta'lim sohasida bir qancha islohotlar amalga oshirishdi. Bu islohatlar nafaqat ta'lim rivojlanishida, balki jamiyat taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda ham bu islohotlardan bir qanchasi o'z ahamiyatlik darajasini yo'qotmagan. Ularga misol sifatida quyidagilarni ayta olamiz.

Jamiyatda ilm-fanning o'rni kuchayishi

Yangi usul maktablarida o'quvchilarga dunyoviy fanlardan dars berilishi ilm-fanga bo'lgan qiziqishni oshirdi. Matematikadan geografiyaga, tarixdan tabiatshunoslikka qadar keng qamrovli bilimlar yoshlar orasida tarqaldi. Bu esa Turkiston jamiyatining yangi avlodlarini ilmiy yutuqlarga erishishga undadi.

1. Madaniyat va ma'rifatning rivojlanishi Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari orqali savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshdi. Bu maktablarda nafaqat an'anaviy diniy ta'lim berildi, balki dunyoviy fanlar ham o'qitildi. Ushbu yondashuv yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirishga va ularni zamonaviy ilm-fan bilan tanishtirishga yordam berdi. Jadidlar nafaqat bilim berish, balki milliy o'zlikni shakllantirish maqsadida ham faoliyat yuritdilar.

2. Milliy o'zlik va uyg'onishning shakllanishi. Jadidlar ta'lim islohotlari orqali Turkiston xalqlarida milliy ong va o'zlikni anglash tuyg'usini uyg'otdilar. Ularning darslik va asarlarida mahalliy til, tarix va madaniyatga katta e'tibor qaratildi. Bu esa jamiyatning milliy o'ziga xosligini asrashga xizmat qildi. Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadidlar tomonidan yozilgan darsliklar milliy ruhni tarbiyalashda muhim o'rin tutdi.

Islohotlarning natijalari va ahamiyati

Turkiston jadidlarining ta'lim sohasidagi islohotlari mahalliy jamiyatning madaniy, ijtimoiy va ma'naviy hayotida chuqur iz qoldirdi. Bu islohotlar quyidagi bir qator natijalar va ahamiyatlarga ega edi:

Yangi usul maktablarining tashkil etilishi. Jadidlar eski maktab va madrasa tizimlarining samarasizligi va zamonaviy talablariga javob bera olmasligini ta'kidlab, yangi usul maktablarini tashkil etishga kirishdilar. Bu maktablarda ta'lim usuli sifatida

fonetika asosida o‘qitish (ya’ni harflarni tovush asosida o‘rgatish) joriy qilindi. Bu usul o‘quvchilarga qisqa vaqt ichida o‘qishni va yozishni o‘rganishga imkon berdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori va boshqa jadidlar bu jarayonning boshida turdilar. Bundan tashqari jadidlar maktablardagi ta’lim mazmunida ham bir qator o‘zgarishlar qilishdi. Bularga misol sifatida quydagilarni ayta olamiz:

1. **Ta’lim mazmunini yangilash.** XX asrning dastlabki 10-15 yilida Turkistonda yangi —usuli jadid yoki —usuli savtiya maktablari ochildi, milliy matbuot va teatrlar tashkil etildi. Turli uyushmalar, harakatlar va xayriya jamiyatlari shakllandi. Jadidlarning xalqning milliy uyg‘onishi, mustaqillik uchun kurash g‘oyalarining shakllanishida, shuningdek, uning madaniy-ma’rifiy qarashlarini boyitishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho‘lpon, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev kabi taniqli kishilarning faoliyati katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston xalqlari orasida ilm-ma’rifatni rivojlantirish ularning milliy-davlat manfaatlarini himoya qilish uchun zarur, degan fikrga keladi. Agar bunday qarashlar debochasini XIX asrda Ahmad Donish kabi ma’rifatparvarlar boshlab bergan bo‘lsa, ularning g‘oya va qarashlarini Sadridin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat kabi millatparvar ziyolilar rivojlantirdi. Jadidlar ta’lim mazmunini boyitish uchun dunyoviy fanlar – geografiya, matematika, tarix va tabiatshunoslik kabi fanlarni o‘quv dasturlariga kiritdilar. Shuningdek, ular arab yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini isloh qilib, uni o‘quvchilarga osonroq bo‘lishi uchun moslashtirdilar.

2. **Ayollar ta’limiga ham e’tibor qaratildi.** Ma’rifatparvarlarimiz cheklanib qolgan ayollarimizning huquqlarini tiklab, millat kelajagi aynan ayollarni savodli qilish ekanligini tushunib yetishgan va ularni bilimli qilishga kirishishgan hatto, chet davlatlarida o‘qib, yanada yaxshi mutaxassis bo‘lishlarini ta’minlashgan, ular uchun alohida maktablarni tashkil qildilar. Bu jamiyatda ayollarning rolini oshirishga va ularning faolligini ta’minlashga qaratilgan qadam edi. Turkistonda mahalliy matbuotning rivojlanishida eng muhim rol o‘ynadi. Qrim tatar ma’rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy ham 1906 yilda birinchi ayollar jurnali “Alem-i Nisvan” (Ayollar dunyosi)ni tashkil qiladi va qizi Shefika Xonimni unga muharrir etib belgilaydi. idaparastlikka singdirilgan deb gumon qilganlar. Jadid ziyolilari, ayniqsa, o‘zlarining nutqlarida va faoliyatida musulmon ayollarni ozod qilishga e’tibor qaratdilar, chunki ular gender tengligi va ozodliksiz ularning yangilanish harakati muvaffaqiyatli bo‘lmasligini tushunishadi. Bu harakat 1913 yilda Ozarbayjonning Boku shahrida istiqbolchilarning quyidagi maqolasi mahalliy jurnallardan birida o‘z aksini topgan: “Kimki o‘z xalqini sevsa va uning kelajagi buyuk bo‘lishini istasa, o‘z ayollarining ma’rifati va tarbiyasi haqida o‘ylashi, ozodlik va mustaqillikni tiklashi kerak. Ularning aqli va qobiliyatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratishi kerak” deb yozadi.

Ma’rifatparning bu chaqirig‘i 1913- yilda Qrimdagi “Tercüman/Perevodchik” (Tarjumon) gazetasida Hariye Hanim Machabilining muharrirga yo‘llagan maktubida yanada ochiqroq o‘z aksini topgan: “Bizning huquqlarimiz Qur’onda va payg‘ambarning so‘zlarida aniq belgilab berilgan. Lekin sizlar (erkaklar), din nomidan bizga zulm qilyapsizlar, shariat (islom qonuni) nomi bilan bizni halok qilyapsizlar. Buning uchun kim azob chekadi va yutqazadi? Yana siz (erkaklar) bo‘lasiz”. Adib Xolid o‘zining Turkistondagi musulmon istiqloqlolchilik (jadidchilik) siyosatiga oid mukammal tadqiqotida sovet tuzumidan oldingi davrda jadidlar yozgan asosiy yo‘nalishni quyidagicha e’tirof etadi. Jadidlar ayollarga nisbatan katta hamdardlik va o‘z mavqeini yaxshilash uchun ajralib turadi.

3. **Matbuot va kitob chop etish orqali islohotlarni targ‘ib qilish.** Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o‘zanga solish, teatr sahnasini ibratxonaga aylantirish naqadar muhim bo‘lsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiysi ham shu darajada ahamiyatli edi. Jadidlar zamonida matbuotdagi haq so‘zning kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta’siri kuchli bo‘ldi. Vaqtli matbuot odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashmog‘i va dunyodan boxabar bo‘lmog‘i uchun zaruratga aylandi. Boshlab gazetalar oyda bir bora bazo‘r chiqdi; asta-asta haftalik va kunlik nashrlar shiddat bilan odamlar orasiga kirib bordi; sahifalaridagi maqola va ma’lumotlar ma’naviy ehtiyoj tusini oldi. Jadidlar tomonidan gazeta va jurnallar nashr etilib, ta’lim islohotlari targ‘ib qilindi. "Oyna", "Turon" va boshqa nashrlar orqali jamiyatni ma’rifatli qilishga urinishdi. Shuningdek, ular tomonidan darsliklar va ilmiy-ma’rifiy kitoblar yozildi. Abdulhamid Cho‘lpon 1913 yili Ismoil Gaspinskiyga yozgan maktubida «Shalola», «Turk yurdi», «Shahbal», «Tarjimon», «Vaqt» va «Iqbol» kabi jadid qardoshlarning gazeta va jurnallarini yodga oladi, ularni o‘qib borayotganini aytadi. Shundan keyin Munavvar Qorining «**Xurshid**» (1906 yil sentabr), Abdulla Avloniyning «**Shuhrat**» (1907 yil dekbar) gazetalar nashr bo‘ladi. Biroq bu gazetalar faoliyati ham uzoqqa cho‘zilmaydi. O‘z g‘oyalari, maslamlari targ‘ibi uchun naqadar foydali ekanini chuqur anglagan jadidlar gazetachilik jabhasida sa’y-u harakatdan to‘xtamadi. «**Tujjor**», «**Osiyo**», «**Samarqand**», «**Sadoi Turkiston**», «**Sadoi Farg‘ona**», «**Tirik so‘z**» kabi gazetalar yonida Mahmudxo‘ja Behbudiyning «**Oyina**» jurnali paydo bo‘ldi. 1913-1915 yillarda 68 soni bosildi.

Umumiy xulosalar

Jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ta’lim islohotlari Turkiston xalqlari hayotida katta burilish yasadi. Ularning faoliyati natijasida jamiyat yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirishga intildi. Bu harakat eski ta’lim tizimining samarasizligini bartaraf etib, yangi, zamonaviy va samarador ta’lim asoslarini yaratdi. Jadidlar faqatgina savodxonlik darajasini oshirish bilan cheklanib qolmasdan, milliy ruhni kuchaytirish, jamiyatni madaniy va ma’naviy jihatdan yangilashga ham katta e’tibor qaratdilar.

Ushbu islohotlar, bir tomondan, Turkiston xalqlarining mustamlaka zulmiga qarshi milliy ongini oshirishga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, ularni global rivojlanish jarayoniga moslashishga undadi. Xususan, yangi usul maktablarida joriy etilgan zamonaviy fanlar va ta’lim metodikasi, matbuot va ommaviy ma’rifat vositalari orqali targ‘ib etilgan bilimlar jamiyatda intellektual o‘shishga sabab bo‘ldi.

Jadidlar faqat erkaklar uchun emas, balki ayollar uchun ham ta’lim olish imkoniyatlarini yaratdilar. Bu esa gender tengligini ta’minlash yo‘lidagi birinchi qadam edi. Ayollarning ta’lim olishi natijasida jamiyatda oila va madaniyat sohasida katta o‘zgarishlar yuz berdi.

Biroq, jadidlarning faoliyati mustamlakachilik siyosatiga qarama-qarshi kelgani sababli, ular turli tazyiqlarga uchradi. Chor hukumati va keyinchalik sovet hokimiyati ularning ta’lim sohasidagi faoliyatini cheklashga harakat qildi. Shunga qaramay, jadidlarning tashabbuslari va fidoyiliklari Turkiston xalqlarining ma’rifatparvarlik ruhini yuksaltirishga ulkan hissa qo‘shdi.

Bugungi kunda jadidlar tomonidan boshlangan ta’lim islohotlarining ahamiyati o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ularning faoliyati nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishda ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Turkiston jadidlarining orzusi bo‘lgan savodli, bilimli va madaniyatli jamiyatni yaratish harakati hozirgi davrda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, jadidlarning merosini o‘rganish va ulardan ilhom olish xalqimizning ma’naviy yuksalishida katta ahamiyatga ega.

Ularning ta’lim sohasidagi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyatni rivojlantirish va yangilashning eng samarali yo‘li – ta’lim va bilimdir. Jadidlarning bu tamoyiliga amal qilish hozirgi va kelajak avlodlar uchun ham muvaffaqiyatli taraqqiyot yo‘lini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов, Х. **"Жадидлар таълими ва унинг таъсири"**. Тошкент: Фан нашриёти, 2005.
2. Каримов, А. **"Туркистонда жадидчилик ҳаракати"**. Самарқанд: Самарқанд университети нашриёти, 2010.
3. Бехбудий, Маҳмудхўжа. **"Туркистоннинг тартиб-ислохи"**. Тошкент: Туркистон нашриёти, 1914.
4. Devon, T. **"Reform and Modernity in Central Asia: Jadidism and Its Legacy"**. New York: Columbia University Press, 2017.
5. Khalid, A. **"The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia"**. Berkeley: University of California Press, 1998.
6. Мамажонов, У. **"Туркистон жадидларининг маърифатчилик ҳаракати"**. Тошкент: Шарқ, 2002.

TIBBIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Kudratova Setora Komilovna

Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi Tibbiyot texnikumi

Annotatsiya: Tibbiy ta'lim, sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar tayyorlash jarayonidir. Bu jarayon, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Tibbiy ta'lim sifatini oshirish, nafaqat tibbiyot sohasining rivojlanishiga, balki bemorlar uchun yuqori sifatli xizmat ko'rsatishga ham olib keladi. Ushbu maqolada tibbiy ta'lim sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy omillar, metodologiyalar va usullar haqida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, sifat, sifatli xizmat, bilm.

Аннотация: медицинское образование-это процесс подготовки специалистов в области здравоохранения. Это процесс, который включает в себя не только теоретические знания, но и практические навыки. Повышение качества медицинского образования ведет не только к развитию медицинской сферы, но и к качественному обслуживанию пациентов. В этой статье обсуждаются основные факторы, методологии и методы, необходимые для повышения качества медицинского образования.

Ключевые слова: образование, инновации, качество, качественный сервис, знания.

Annotation: is the process of training specialists in the field of medical education, health. This process involves not only theoretical knowledge, but also practical skills. Improving the quality of medical education leads not only to the development of the medical field, but also to high-quality service for patients. This article will discuss the main factors, methodologies and methods necessary to improve the quality of medical education.

Keywords: education, innovation, quality, quality service, knowledge.

Tibbiy ta'lim sifatini oshirish orqali yuqori malakali tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash, ularning nazariy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish. Tibbiy ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi fikr almashish va hamkorlikni rivojlantirish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish.

An'anaviy darslardan tashqari, interaktiv ta'lim metodlarini (masalan, simulyatsiyalar, o'yinlar, guruhli muhokamalar) joriy etish. Talabalarga amaliyotlar, klinik stajirovkalar va bemorlar bilan ishlash imkoniyatlarini taqdim etish. Bu, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Tibbiyot, psixologiya, ijtimoiy fanlar

va boshqa sohalar o‘rtasida integratsiyani ta’minlash, talabalar uchun kengroq bilim bazasini yaratish. ko‘nikmalarini yangilash imkonini beradi, bu esa ta’lim sifatini yanada oshiradi. Tibbiy ta’lim sifatini oshirish natijasida talabalar o‘z ta’lim jarayonidan ko‘proq qoniqish hosil qiladilar, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va ularni professional rivojlanishga rag‘batlantiradi. Malakali mutaxassislar tayyorlanishi va tibbiy xizmat sifatining oshishi natijasida, sog‘liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligi oshadi. Tibbiy ta’lim sifatining oshishi orqali, o‘quv dasturlari xalqaro standartlarga mos keladi, bu esa talabalar uchun global imkoniyatlarni kengaytiradi. Ushbu natijalar tibbiy ta’lim sifatini oshirishning muhim ahamiyatini ko‘rsatadi va sog‘liqni saqlash sohasida sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi.

Tibbiy ta’lim sifatini oshirish uchun o‘qituvchilar va professor-o‘qituvchilar sifatini yaxshilash zarur. O‘qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishi kerak, balki amaliy tajribaga ham ega bo‘lishlari lozim. Ularning bilim va tajribasi talabalarga ta’sir qiladi va ularni kelajakdagi faoliyatlariga tayyorlaydi. O‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari va seminarlar orqali yangilab turish, ularning bilimlarini yangilash va zamonaviy tibbiyotdagi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishlariga yordam beradi. Tibbiy ta’limda amaliyotning ahamiyati katta. Talabalar nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishlari zarur. Amaliyotlar, bemorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash, klinik muhitda tajriba orttirish imkonini beradi. Tibbiy ta’lim muassasalari, talabalarni amaliyotga jalb qilish uchun klinik bazalar bilan hamkorlik qilishlari lozim. Bu talabalar uchun real hayotiy tajribani taqdim etadi va ularning professional ko‘nikmalarini oshiradi. Tibbiy ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Simulyatsiya dasturlari, virtual reallik va boshqa innovatsion texnologiyalar, talabalar uchun amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu texnologiyalar, talabalar uchun xavfsiz muhitda tajriba o‘tkazish imkonini beradi va ularning o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, masofaviy ta’lim platformalari, talabalar uchun o‘z bilimlarini mustahkamlash va qo‘shimcha resurslarga kirish imkoniyatini beradi. Tibbiy ta’limda interdisiplinar yondashuvni qo‘llash zarur.

Tibbiyot sohasida ishlaydigan mutaxassislar, bemorlar va ularning oilalari bilan muloqot qilishda etik qoidalarga amal qilishlari lozim. Tibbiy ta’lim dasturlarida etika va professionalizm bo‘yicha darslar o‘tkazilishi, talabalarni bu sohada tayyorlashga yordam beradi. Bu, ularning kasbiy faoliyatlarida to‘g‘ri qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi. Tibbiy ta’lim sifatini oshirish, nafaqat tibbiyot sohasidagi mutaxassislar tayyorlashda, balki bemorlar uchun yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishda ham muhim ahamiyatga ega. Tibbiy ta’limda sifatni oshirish uchun o‘qituvchilar sifatini yaxshilash, amaliyotning ahamiyatini oshirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, interdisiplinar yondashuvni qo‘llash, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, ta’lim dasturlarini yangilash, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida fikr

almashishni rivojlantirish va etika va professionalizmni o‘rganish zarur. Ushbu omillar, tibbiy ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi va kelajakda sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Tibbiy ta’lim sifatini oshirish jarayoni davomiy va dinamik bo‘lib, doimiy ravishda yangilanib turishi kerak. Bu jarayonda barcha ishtirokchilar, jumladan, o‘qituvchilar, talabalar, klinikalar va ta’lim muassasalari birgalikda ishlashlari zarur. Tibbiy ta’lim sifatini oshirish, nafaqat sog‘liqni saqlash sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda, balki umumiy jamiyatda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Brown, J. A., & Green, T. D. (2021). "Active Learning Strategies in Medical Education: A Meta-Analysis." *Academic Medicine*, 96(5), 634-642.
2. Lee, C. H., & Park, H. J. (2022). "Interprofessional Education in Medical Training: Benefits and Challenges." *Journal of Interprofessional Care*, 36(3), 345-352.
3. Smith, R. L., & Johnson, P. (2023). "Quality Improvement in Medical Education: Lessons Learned from the COVID-19 Pandemic." *Medical Education Online*, 28(1), 112-119.
4. Farkhod, M. (2020). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02).
5. Mamajonova G.K. Bioethics is applied ethics//Teoriya i praktika sovremennoy nauki. – 2018. –№. 1.

TIBBIYOT OLIY O‘QUV YURTLARIDA TA’LIM TIZIMIDA TALABA-YOSHLARDA GIPODINAMIYA HOLATLARI PROFILAKTIKASI VA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

Nasirova Durdonaxon Yusupjonovna,

Angren universiteti Davolash ishi fakulteti o‘qituvchisi, akusher-ginekolog

+998946429288, durdonaxonnasirova96@gmail.com

Angren universiteti, Angren, O‘zbekiston.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, gipodinamiya, jismoniy mashqlar, salomatlik, kasallik.

Dolzarbligi. Salomatlik - har bir inson uchun bebaho boylik sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim shartlaridandir. Inson salomatligini har qancha moddiy boylik va mablag‘ evaziga sotib olib bo‘lmaydi. Har bir shaxs uchun inson salomatligi muhim ahamiyatga ega. Har bir inson mustahkam salomatlikka qanday erishish yo‘lini, salomatlikning sir-asrorlarini chuqur bilishi va to‘laqonli salomatlikning yagona yo‘li sog‘lom turmush tarzi ekanligini anglab yetishi kerak.

Tadqiqotning maqsadi. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim tizimida talaba-yoshlarda gipodinamiya holatlarini oldini olish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.

Tadqiqot material va usullari: 3-kurs talabalarining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish darajalarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan so‘rov anketasi, pedagogik kuzatishdan tashqari, oliy ta‘lim muassasalari hujjatlarini o‘rganish metodikasi, ekspert baholash usuli va o‘z-o‘zini baholash metodi. Biz bu usullardan foydalanib holatni baholadik. O‘tkazilgan so‘rovnoma ko‘ra talabalar savolnomalarga quyidagicha javob berishgan: sog‘lom turmush tarzi nima savoliga sog‘lom ovqatlanish qoidalariga rioya qilish 5,5%, jismoniy faoliyat 1%, ish va dam olish tartibi 2,5%, zararli odatlarning yo‘qligi 5,5%, keltirilgan barcha variantlarga 85,5% deb javob berilgan. Jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi asoslariga rioya qilish tufayli o‘zimga bo‘lgan ishonchim va tanamdagi jismoniy holatim yaxshilanadi savoliga to‘liq qo‘shilaman 65,5%, men qisman roziman 25,5%, javob berishga qiynalaman 3,5%, qisman rozi emasman 3,5%, umuman rozi emasman 2% ni tashkil etdi. Sog‘lom turmush tarzi inson organizmida turli patologiyalarning paydo bo‘lishidan saqlovchi baryerdir. Adabiyotlarda keltirilishicha, inson salomaligi 60-70%i turmush tarziga bog‘liq. Zararli odatlar organizmida turli surunkali kasalliklar paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga omil bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, sizda qanday zararli odatlar mavjud? savoliga 3% - talabalar menda unday odatlar yo‘q, 1,5% - alkogolli ichimliklar ichish, 50,5% - yog‘li ovqatlar va tez tayyorlanadigan mahsulotlar iste‘mol

qilish va 45,0 talabalar javob berishga qiynalaman deb ta’kidlagan. Sog‘lom turmush tarzi to‘g‘ri ovqatlanish bilan chambarchas bog‘liq. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, jismoniy faollik hamda ovqatlanish me’yor va qoidalariga amal qilmaslik, tarkibida tuz, qand, yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan taom va shirinliklarni me’yoridan ortiq iste’mol qilish, shuningdek, yetarli darajada vitamin va minerallar iste’mol qilmaslik oqibatida yoshlarda ratsional o‘shish va aqliy rivojlanishda ortda qolish, kattalarda esa yurak qon-tomir, endokrin, xavfli o‘asma kabi insonning erta o‘limiga olib keluvchi qator kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. To‘g‘ri ovqatlanish qoidalariga rioya qilasizmi? degan savolga atigi 22% talabalar ha deb javob berishgan bo‘lsa, 60% ba’zan, 18% talabalar esa -yo‘q deb javob berishgan. Sog‘lom turmush tarziga shaxsiy munosabatingiz savoliga 77,5% bu inson salomatligi uchun muhim va unga rioya qilishga harakat qilaman, 6,5% usiz ham yashashingiz mumkin, 16% ba’zida rioya qilinishi kerak deb javob berishgan. Undan tashqari, talabalardan insonlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun nimalar qilish kerakligi haqida shaxsiy fikrlari yig‘ildi. Ko‘pchilik talabalar (60,0%) sog‘lom turmush tarzi shakllanishida oilaning o‘rni katta ahamiyatga ega deb ta’kidlashgan bo‘lsa, 30% talabalar sog‘lom turmush tarzi uchun oilaning moliyaviy mablag‘i ahamiyatga ega deb javob berishgan, 20% talabalar sog‘lom turmush tarzi uchun talabalarda institut va yotoqxonalarda shart sharoitlar yetarli bo‘lishi kerak deb ta’kidlashgan. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil faoliyati yo‘nalishlaridan biriga e’tibor qaratish lozim, bu o‘z-o‘zini davolash metodologiyasiga asoslangan bo‘lib, u sog‘lom turmush tarzini tashkil etishning aks ettirish, dam olish, avtogen mashg‘ulotlari kabi usullar ta’minlaydi. So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘rtacha hisobda respondentlarning atigi 15,28 foizi sog‘lom turmush tarzini shakllantirish darajasi yuqori. Asosan, talabalar barcha mezonlar bo‘yicha o‘rta (48,15%) va past (36,3%) darajalarda. Aynan shu davrda kuchli stresslar mavjud bo‘lib, ular imtihonlar va mashg‘ulotlar paytida kuchayadi. O‘qish bilan band bo‘lgan talabalarning salomatligi haqida o‘ylashga vaqti yo‘q. Sog‘lom turmush tarzini bilishning o‘zi yetarli emas, demak uni hayot tarziga aylantirish zarur.

Xulosa. Yoshlar salomatligining holati jamiyat salohiyatiga ta’sir qiladi, bu esa xalq va davlat farovonligining asosiy ko‘rsatkichidir. Aksariyat oilalarda daromad o‘rtacha darajadan past. Bu holatda oila ratsional ovqatlana olmaydi - shuning uchun oqsillar, vitaminlar va mikroelementlar, ayniqsa kalsiy yetishmovchiligi kuchayib bormoqda. Avvalo, yoshlar qiynaladi: gormonal o‘zgarishlar va yoshlardagi kayfiyat o‘zgarishi qarindoshlar, kursdoshlar va universitet professorlari bilan munosabatlarga ta’sir qiladi. Tez o‘sayotgan yosh organizm uchun bu immunitetning keskin pasayishiga va salomatlik sifatini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun talabalar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, ular bilan suhbat qurish va ratsional ovqatlanish qoidalarini o‘rgatish zarur.

SODDA IRRATSIONAL TENGLAMALAR

Kamalova Xillolaxon Solijonovna

*Oliy tailim fan va innovasiyalar vazirligi Andijon xududiy boshqarmasi tizimidagi
Qo‘rg‘ontepa tumani 2-son kasb-hunar maktabi matematika fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sodda irratsional tenglamalarni yechish usullari ko‘rib chiqiladi. Irratsional tenglamalar – ildiz ostidagi noma'lumlarni o‘z ichiga olgan tenglamalar bo‘lib, ularni yechish uchun har xil usullar va qoidalar mavjud. Maqolada ushbu tenglamalarning yechimiga oid asosiy qadamlar va qoidalar bayon qilinadi, shuningdek, matematik tarixda irratsional tenglamalar qanday rivojlanganiga qisqacha to‘xtalib o‘tiladi. Misollar yordamida yechim metodlari tushuntiriladi va eng keng tarqalgan xatoliklar muhokama qilinadi. Natijalarga ko‘ra, sodda irratsional tenglamalarni oson va tez yechish yo‘llari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: irratsional tenglamalar, ildiz, tenglama yechish, kvadrat tenglama, yechim metodlari, matematik tahlil

Irratsional tenglamalar matematikada juda muhim o‘rin egallaydi, chunki ular ko‘plab tabiiy va ilmiy jarayonlarni modellashda qo‘llaniladi. Bu tenglamalar ildiz ostida noma'lumni saqlovchi yoki kvadrat ildiz bilan bog‘liq tenglamalardir. Sodda irratsional tenglamalarni yechish orqali matematik masalalarni chuqur tushunishga erishish mumkin. Ushbu maqola irratsional tenglamalarning mohiyatini, ularni qanday yechish kerakligini va keng tarqalgan yechim usullarini tahlil qiladi.

Matematikaga oid adabiyotlarda irratsional tenglamalarning yechim usullari ko‘p marotaba o‘rganilgan. Klassik matematiklar Evarist Galois, Jozef Luy Lagrange kabi matematiklar algebra va irratsional tenglamalar bilan ishlaganlar. Zamonaviy matematikada irratsional tenglamalarning tahlili va yechish usullari maktab darsliklaridan tortib, oliy matematik kitoblarida keng o‘rganiladi. Bu boradagi tadqiqotlar algebraik va tahliliy metodlar, raqamli usullar asosida rivojlanib kelmoqda.

Irratsional sonlar tushunchasi qadimgi yunon matematiklari tomonidan aniqlangan. Masalan, Pifagor maktabi a‘zolari kvadrat ildizga oid ba‘zi masalalar bilan shug‘ullanganlar. Irratsional tenglamalarning matematik tahlilga kirib kelishi Yevropada algebra rivojlanishi bilan bog‘liq. XVII-asrda Rene Dekart va Pier de Ferma kabi matematiklar irratsional tenglamalar va ularning grafigini chizish usullari haqida tadqiqotlar olib borganlar.

Irratsional tenglamalar bilan ishlashda qilingan eng keng tarqalgan xatolardan biri – tenglamaning ikkala tomonini darajaga ko‘tarish jarayonida hosil bo‘lgan soxta yechimlar. Ushbu maqola davomida ko‘rib chiqilgan misollarda bu jarayon batafsil tushuntiriladi va qaysi usullar aniqroq natija berishini ko‘rsatib beriladi. Shuningdek,

matematikada irratsional tenglamalarning ko‘p qo‘llanilishi haqida muhokama qilinadi.

Sodda irratsional tenglamalarni yechishda quyidagi qadamlar qo‘llaniladi:

1. Ildizdan xalos bo‘lish: Irratsional tenglamalarni yechish uchun tenglamaning har ikki tomonini darajaga ko‘tarish orqali ildizlardan qutulish kerak.

2. Yangi tenglama hosil qilish: Darajaga ko‘tarilgan tenglama oddiy algebraik tenglama shaklini oladi va uni keyin yechish mumkin.

3. Noma'lumni ajratish: Oddiy tenglama yechilgach, noma'lumni ajratish va yechim topish uchun algebraik qadamlar bajariladi.

4. Yechimni tekshirish: Qayta tekshirish orqali hosil qilingan yechimlarning irratsional tenglamaga mosligini ko‘rib chiqish muhim. Bu qadamda berilgan ifodaning aniqlanish sohasi tushunchasi kiritilib, u orqali aniqlanish sohasiga kiruvchi yechimlar olinadi.

Tadqiqot davomida bir necha sodda irratsional tenglamalar misol tariqasida ko‘rib chiqiladi. Masalan, quyidagi tenglamani yechamiz: $\sqrt{x+2} = x - 1$

1-qadam: Ildizdan xalos bo‘lish uchun har ikki tomonni kvadratga ko‘taramiz:

$$(\sqrt{x+2})^2 = (x-1)^2 \Rightarrow x+2 = x^2 - 2x + 1$$

2-qadam: Hosil qilingan oxirgi tenglamada ifodalarni hammasini chap tomonga jamlab yechamiz: $x^2 - 3x - 1 = 0$.

Oxirgi tenglama kvadrat tenglama bo‘lib, uning ildizlarini kvadrat tenglamaning ildizlari formulasi orqali topamiz:

$$x_1 = \frac{3 + \sqrt{3^2 - 4 \cdot (-1)}}{2} = \frac{3 + \sqrt{13}}{2}, \quad x_2 = \frac{3 - \sqrt{3^2 - 4 \cdot (-1)}}{2} = \frac{3 - \sqrt{13}}{2}.$$

3-qadam: Hosil bo‘lgan yechimlarni tekshiramiz va qaysi biri mos kelishini aniqlaymiz. Tenglamaning berilishiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, $x - 1 \geq 0$ bo‘lishi kerak. Bu tengsizlikni esa faqatgina x_1 qanoatlantiradi. Shunday qilib berilgan tenglamaning yechimi $x = \frac{3 + \sqrt{13}}{2}$.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sodda irratsional tenglamalarni darajaga ko‘tarish orqali oddiy algebraik tenglamalarga aylantirish mumkin. Ammo bu usulda soxta yechimlar paydo bo‘lishi mumkinligi uchun natijalarni qayta tekshirish zarur. Topilgan yechimlar irratsional tenglamani qanoatlantiradimi yoki yo‘qligini tekshirish, to‘g‘ri yechimni aniqlashga yordam beradi.

Umuman olganda irratsional tenglama ko‘rinishlarini tahlil qilib chiqsak:

1) $\sqrt[n]{f(x)} = a$. Bu holda agar n soni toq son bo‘ladigan bo‘lsa, bu tenglamani $f(x) = a^n$ ko‘rinishida yechishimiz yetarli. Agar n soni juft son bo‘lsa u holda yana ikkita vaziyat bo‘lishi mumkin:

1. $a < 0$. Bu holda yechim mavjud emas;
2. $a \geq 0$. Bu holda quyidagi sistemani yechishimiz kerak:

$$\begin{cases} f(x) = a^n \\ f(x) \geq 0 \end{cases} .$$

2) $\sqrt[n]{f(x)} = g(x)$. Bu holda agar n soni toq son bo‘ladigan bo‘lsa, bu tenglamani $f(x) = (g(x))^n$ ko‘rinishida yechishimiz yetarli. Agar n soni juft son bo‘lsa, $\begin{cases} f(x) = (g(x))^n \\ g(x) \geq 0 \end{cases}$ sistemani yechish kerak.

Misol. $\sqrt[3]{x+1} = x-5$ tenglamani yeching.

Yechish. Yuqoridagi 2) holdagi n toq holatga ko‘ra $(x-5)^3 = x+1$ tenglamani yechishimiz yetarli. Bu tenglamani $(x-7)(x^2-8x+18) = 0$ ko‘rinishiga keltiramiz. Demak, ko‘rish mumkinki, bu tenglamaning ildizi $x = 7$.

Sodda irratsional tenglamalarni yechishda murakkabroq irratsional ifodalar yoki ko‘paytuvchi ildizlar bilan ishlash qiyin bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda yechimni aniqlash uchun boshqa algebraik usullardan yoki hisoblash texnikalaridan foydalanish talab etiladi. Shuningdek, sodda irratsional tenglamalarning grafigini chizish ham ularning yechimlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sodda irratsional tenglamalar matematik tahlilning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada irratsional tenglamalarni yechish usullari va qoidalari batafsil ko‘rib chiqildi. Irratsional tenglamalar, asosan, kvadrat ildiz yoki boshqa ildizlar orqali noma'lum qiymatlarni ifodalashda paydo bo‘ladi va ularni yechishda asosiy qadam tenglamaning har ikki tomonini darajaga ko‘tarish orqali ildizdan qutulishdir. Biroq, bu jarayonda soxta yechimlarning paydo bo‘lishi mumkinligi sababli, har bir yechim qayta tekshirilishi kerak.

Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan misollar sodda irratsional tenglamalarni samarali yechishning asosiy usullari bo‘lib, ularni oddiy algebraik tenglamalarga aylantirish orqali hal qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Yechimlar olish jarayonida matematik metodlar, xususan, darajaga ko‘tarish, tenglamaning ikki tomonini soddalashtirish, va oxirida yechimni qayta tekshirish juda muhimdir. Bu usullar irratsional tenglamalarni hal qilishda tushunishni osonlashtiradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar va amaliy mashg‘ulotlarda irratsional tenglamalarni chuqurroq o‘rganish va boshqa turdagi matematik muammolarda ularni qo‘llash zarur. Shuningdek, o‘quvchilar va talabalarga irratsional tenglamalarni o‘rganishda qiyinchilik tug‘diradigan qadamlar haqida ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish lozim. Xususan, grafik usullar va matematik model ishlatish orqali tenglamalarning yechimlari va ularning fizik va matematik modellariga oid qo‘llanishlari ko‘rsatib berilishi kerak.

Shuningdek, irratsional tenglamalarni yechishda noto‘g‘ri yechimlar va soxta ildizlarni bartaraf etish usullarini yanada chuqurroq o‘rganish kerak. Bu maqola orqali

sodda irratsional tenglamalar haqidagi bilimlar kengaytirildi va bu sohada matematik izlanishlar davom ettirilishi lozimligi ko'rsatib berildi. Kengroq ma'noda, irratsional tenglamalarni yechish bo'yicha samarali o'qitish usullari taklif etilib, matematikada ularga doir qo'llanish imkoniyatlari kengaytirildi. Bunga qo'shimcha ravishda, irratsional tenglamalarning tarixi va ulardan foydalanish metodlarini chuqur o'rganish uchun kelgusida zamonaviy ilmiy va raqamli texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bu esa matematikani o'rganishni yanada qiziqarli va amaliy qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Aleksandrov, A. D., Kolmogorov, A. N., Lavrent'ev, M. A. (1988). Matematik analizga kirish. Moskva: Nauka.
- 2) Courant, R., Robbins, H. (1996). What is Mathematics? An Elementary Approach to Ideas and Methods. Oxford University Press.
- 3) Umirzaqova, K. O. (2020). PERIODIC GIBBS MEASURES FOR HARD-CORE MODEL. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(3), 67-73.
